XALQ DEPUTATLARI ELLIKQAL’A TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 5-mart VII-21-18-13-194-K/26 Ellikqal’a tumani

Ellikqal’a tumani bo‘yicha 2026-yilda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-1105-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Ellikqal’a tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy byudjetlar va byudjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, byudjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar” to‘g‘risidagi PQ-387-sonli qarori bilan Xalq deputatlari tuman Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ellikqal’a tumani hududida 2026-yil uchun alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning stavkalari ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Mazkur yig‘imlardan tushgan tushumlar to‘liq miqdorda tuman mahalliy byudjetiga yo‘naltirilsin.

4. Tuman hokimining moliya iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (B.K.Alimov), tuman Soliq inspeksiyasi (N.Abayev)lar mazkur qarorni o‘z vaqtida bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini ta’minlash hamda xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma ravishda axborot kiritib borish vazifasi tumani hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i B.K.Alimov zimmasiga yuklatilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi Sh.Xodjiyev zimmasiga yuklatilsin.

7. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari T.Nurimovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **QO‘SHNAZAROV SHUXRAT XALILLAYEVICH**

Xalq deputatlari Ellikqal’a tumani
Kengashining
2026-yil 5-martdagi
VII-21-18-13-194-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalariga nisbatan kiritilayotgan oshiruvchi foizlar miqdorlari

T/r	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		O‘RQ-1105-sonli qonuni bilan belgilangan bazaviy stavka (boshqa aholi punktlari)	**Yig‘imlarni cheklangan stavkalarini oshirish foizi**	**Bir oyga chegaralangan stavkalar (Boshqa aholi punktlarida)**
1.	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	15 foiz	345 000
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	15 foiz	172 500